

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»



**“Innovatsion menejment” kafedrasi
08.00.13 – “Menejment”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni**

DASTURI

TOSHKENT – 2025

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2025 yil “30. 10” dagi Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Innovatsion menejment” kafedrasining 2025 yil 23 sentyabrdagi 5 - sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

“Innovatsion menejment” kafedrası mudiri

B.N. Urinov

Tuzuvchilar:	B.N.Urinov	TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrası mudiri, professor
	Sh.A.Tursunov	TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrası dotsenti, DSc.
Taqrizchilar:	O.Djurabayev	TDIU va UDIU “Moliya va raqimli iqtisodiyot” kafedrası mudiri, DSc.
	Z.Ashurov	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi direktori o‘rinbosari, PhD

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonning “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmon bilan imzolandi. Mazkur Farmonning Uchinchi yo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash”¹ vazifasi belgilab berildi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishda o‘zgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarini ilg‘ab olish, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilish, strategik qarorlar qabul qilish, ko‘p variantli yechimlardan muqobil yechimni tanlash, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida strategiyani to‘g‘ri tanlash har bir korxona uchun dolzarb masaladir. Ishlab chiqarish korxonalarida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va bu qarorlarning bajarilishini ta’minlashda menejmentning ilmiy yondashuvlari va tamoyillarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda “Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi.

Fikrimizcha, bu o‘rinda asosiy muammo quyidagilardan iborat. Birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma’lum darajada uzilib qolmoqda. Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish kontseptsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo‘l qo‘yilmoqda. Va nihoyat, uchinchi asosiy kamchilik – ko‘pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari, har bir

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 3-band.

korxonadagi, shahar va tumanlardagi, ayniqsa, qishloq joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq"².

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi mavqei va o'rni uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bu o'rinda sanoatni rivojlantirish muammolarini ilmiy asosda hal eta oladigan ilmiy pedagogik kadrlarning o'rni va ishtiroki muhimdir.

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asoslanib mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Dasturda qo'yilgan mavzu va masalalar "Menejment" ixtisosligi bo'yicha talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

Shu sababli, 08.00.13—"Menejment" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon dasturini tuzishda yuqorida qayd etilgan talablardan kelib chiqildi. Dastur talabgorlarning menejment va korporativ boshqaruvning nazariy hamda amaliy jihatlariga oid bilimlarini atroflicha to'g'ri baholash imkonini beradi.

Dastur 08.00.13—"Menejment" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihonlarga tayyorlanish va uni topshirish uchun mo'ljallangan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-6097-son Farmoni.

I-BO‘LIM. MENEJMENT

1.1. Menejmentning rivojlanish tarixi va hozirgi holati

Menejment rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari. Menejmentning paydo bo‘lishi. Menejmentning ilmiy maktablari. Ilmiy boshqaruv maktabi. Boshqaruvning klassik yoki ma‘muriy maktabi. Boshqaruvdagi insoniy munosabatlar maktabi. Axloqiy fanlar yoki bixevioristik maktab. Boshqaruv fani maktabi yoki miqdoriy usul. Vaziyatli yondashuv. Tizimli yondashuv. Jarayonli yondashuv. Davlat boshqaruvining rivojlanishi. Menejmentning xorijiy modellari. Menejmentning amerikacha modeli. Menejmentning yapon modeli. Menejmentning G‘arbiy Yevropa modeli.

1.2. Menejmentning nazariy asoslari

Boshqaruv va menejment. Moliyaviy menejment. Innovatsion menejment. Savdo menejmenti. Boshqaruv (menejment)ning mohiyati va tizimi. Boshqaruv tizimining boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalari. To‘g‘ridan to‘g‘ri va teskari aloqa. Menejment tizimining tuzilishi. Boshqaruv usullari. Menejmentning ilmiy yondashuvlari va tamoyillari. Ma‘muriy yondashuv. Dinamik yondashuv. Integratsiyali yondashuv. Majmuaviy yondashuv. Me‘yoriy yondashuv. Axloqiy yondashuv. Jarayonli yondashuv. Tizimli yondashuv. Vaziyatli yondashuv. Vazifaviy yondashuv. Mehnat taqsimoti tamoyili. Vakolatlar va javobgarlik tamoyili. Intizom tamoyili. Yakka hukmronlik tamoyili. Harakatlar birligi tamoyili. Shaxsiy manfaatlarni bo‘ysindirilishi tamoyili. Xodimlarni mukofotlash tamoyili. Markazlashtirish tamoyili. Qoyali zanjir tamoyili. Tartib tamoyili. Adolat tamoyili. Xodimlarning barqarorligi tamoyili. Tashabbus tamoyili. Korporativ ruh tamoyili.

1.3. Mehnatni boshqarish usullari

Mehnatni boshqarish tavsifi. Iqtisodiy o‘rnatishning har xil bosqichlarida mehnatni boshqarish turlari. F.Teylorning mehnatni boshqarish usullari. Mehnatni texnokratik boshqarish. Sanoatda bandlikning umumiy tamoyillari va mehnat munosabatlarini o‘rnatish. D.Makgregorning “X” va “Y” nazariyasi. Mehnatni innovatsion boshqarish. Mehnatni innovatsion boshqarishga o‘tishning asosiy omillari va shartlari. Korporatsiyalarda “Sifat to‘garaklari” ishchi guruhini tashkil etish.

1.4. Menejment texnologiyasi

Boshqaruv jarayoni. Boshqaruv vazifalari. Rejalashtirish. Maqsadlar. Tashkil qilish. Motivatsiya. A.Maslou bo'yicha ehtiyojlar ierarxiyasi. Muvofiqlashtirish. Boshqaruvda axborotlar va kommunikatsiyalar. Tashkilot va tashqi muhit o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Ishlab chiqarish va boshqaruv bosqichlari bo'yicha bo'linmalar ichidagi kommunikatsiyalar. Shaxslararo kommunikatsiyalar. Bo'linmalar o'rtasidagi kommunikatsiyalar. Norasmiy kommunikatsiyalar. Kommunikatsion jarayon. Boshqaruv qarorlari. Qarorni bajarilishini tashkil qilish. Qarorni bajarilishi ustidan nazorat qilish faoliyati va qarorga tuzatishlar kiritish. Qarorni bajarish bo'yicha faoliyatni baholash.

1.5. Tashkilotlar va ularni boshqarish

Tashkilot tushunchasi va uning tavsifi. Tashkilotning yashash davri. Tashkilotning ichki va tashqi muhiti. Tashkilotlar faoliyatini turkumlashtirish. Tashkilotning tashkiliy tuzilmasi va uning turlari. Mehnatni gorizontal bo'linishi. Mehnatning vertikal taqsimlanishi. To'g'ri chiziqli tuzilma. Boshqaruvning funktsional tuzilmasi. Boshqaruvning to'g'ri chiziqli - shtabli tuzilmasi. Boshqaruvning matritsali tuzilmasi. Divizional (yoki bo'limli) tashkiliy tuzilma. Mahsulotli tashkiliy tuzilma. Mintaqaviy tashkiliy tuzilma. Iste'molchiga qaratilgan tashkiliy tuzilma. Boshqaruvning kombinatsiyalashtirilgan tuzilmasi. Asosiy tashkiliy-xuquqiy shakllar. Mas'uliyati cheklangan jamiyat. Qo'shimcha mas'uliyatga ega jamiyat. Aktsiyadorlik (hissadorlik) jamiyati. Shu'ba va bog'liq jamiyatlar. Davlat unitar korxonalari. Notijorat tashkilotlari. Kartel. Sindikat. Trest. Kontsern. Konsortsium. Sanoat xoldinglari. Tadbirkorlik uyushmalari. Virtual korporatsiya. Tashkilotlar rivojlanishidagi zamonaviy tendentsiyalar. Tarmoqli tashkilotlar. Tashkilotlarning yangi turlari. Tashkilotlarni strategik boshqarish. Strategik boshqaruv tuzilmasi.

1.6. Zamonaviy menejer

Menejer tushunchasi, shaxsiy va ishga doir sifatlari hamda vazifalari. Korxona menejerlarining darajalari. Menejer va yetakchi. Yetakchining an'anaviy kontseptsiyasi. Yetakchilik sifatlari nazariyasi. Yetakchilik xulqi kontseptsiyalari.

Vaziyatli yetakchilik kontsepsiyasi. Tannenbaum-Shmidt yetakchilik xulqi kontinuumi (uzluksizligi). Vaziyatli yetakchilik modellari (F. Fidler). Xersey va Blansharlarning vaziyatli yetakchilik modeli. Xauz va Mitchellarning “yo‘l-maqсад” yetakchilik modeli. Vrum-Iettona-Yagolarning qarorlar qabul qilishning vaziyatli modeli. Yetakchilarni yangi kontsepsiyalari. Atributli (belgili) yetakchilik kontsepsiyasi. Xarizmatik yetakchilik kontsepsiyasi. Tubdan o‘zgartiruvchi yetakchi kontsepsiyasi. Menejerning uslubi. Rahbarlik uslublarining mazmuni. Rahbarlikning demokratik uslubi. Menejerning imidji. Nutq madaniyati. Ishbilarmonlik etikasi. Ishbilarmonlik etiketining milliy xususiyatlari.

1.7. Boshqaruv mehnatini tashkil qilish

Boshqaruv mehnati: ta’rifi, xususiyatlari, turlari. Evristik mehnat. Ma’muriy mehnat. Boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil qilish. Rahbarni o‘zini-o‘zi boshqarishi. Menejment tomonidan vaqtdan va o‘z imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanish. Hayotiy davomiylikni ongli ravishda boshqarish. Maqsadlarni qo‘yish. Ishlash qobiliyati va o‘zgarishlari. Axborot bilan ishlash. Telefondagi so‘zlashishlar. Ish yuritish hujjatlarini olib borish. Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish.

1.8. Tashkilot xodimlarini boshqarish

Jamoa tushunchasi, turlari, shakllanish bosqichlari. Mehnat jamoasi. Ta’sir o‘tkazish va hukmronlik. Majbur qilishga asoslangan hukmronlik. Mukofotlashga asoslangan hukmronlik. Ekspertli hukmronlik. Qonuniy hukmronlik. Resurslarga egalik qilishga asoslangan hukmronlik. Axborotlarni olish va ulardan foydalanishga asoslangan hukmronlik. Nizolarni boshqarish. Shaxs ichidagi nizo. Shaxslararo nizo. Shaxs va guruh o‘rtasidagi nizo. Guruhlararo nizo. Nizolarni hal qilish usullari. Xodimlarni boshqarish. Xodimlarni tanlash. Menejerning ishbilarmonlik sifatlarini baholash. Martabani boshqarish.

1.9. Korxona qudratini boshqarish

Korxona qudratini boshqarish texnologiyasi. Korxona qudratidan foydalanish dinamikasi va samaradorligining tuzilishini, uning bozordagi ulushini baholash. Korxona raqobatbardoshligini baholash. Korxonaning iqtisodiy qudrati. Korxona qudratining zahiralar va yo‘qotishlarini tahlil qilish. Korxona raqobatbardoshligini

oshirish bo'yicha strategiya va taktikani tanlash. Tanlangan strategiya va taktikadan kelib chiqqan holda korxona qudratining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish. Korxona qudratini boshqarish usullari. Korxona qudrati samaradorligi zahiralari.

II-BO'LIM. KORPORATIV BOSHQARUV

2.1. Korporativ boshqaruvning rivojlanishi

Korporativ boshqaruv mohiyati va dastlabki qarashlar. Korporativ boshqaruv tushunchasi va uning rivojlanishi. Korporativ boshqaruvning rivojlanish bosqichlari. Korporativ boshqaruvga dastlabki qarashlar. Korporativ boshqaruv predmeti. Korporativ boshqaruv vazifalari. Manfaatdor tomonlar. Shaffoflik. Hisobdorlik. Javobgarlik. Adolatlik.

2.2. Korporativ boshqaruvning asosiy nazariyalari

Korporativ boshqaruv nazariyalarining vujudga kelishi sabablari. Agentlik nazariyasi. Agentlik xarajatlari. Axborot assimetriyasi. Agentlik muammosi. Boshqaruv mexanizmlari. Styuardship nazariyasi. Agentlik nazariyasi va boshqaruv nazariyasi o'rtasidagi farq. Resursga qaramlik nazariyasi. Yetkazib beruvchiga bog'liqlik. Mijozlarga qaramlik. Hukumatga qaramlik. Moliyaviy qaramlik. Tranzaksion xarajatlarni nazariyasi. Manfaatdor tomonlar nazariyasi. Manfaatlarni to'qnashuvi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat. Manfaatdor tomonlar vakilini jalb qilish.

2.3. Korporativ boshqaruvning huquqiy va institusional asoslari

Korporativ boshqaruvning O'zbekistondagi me'yoriy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun. "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimi va kapital bozorini rivojlantirishga oid islohotlar. Korporativ boshqaruv kodeksi. Sarbanes-Oxley qonuni va uning korporativ boshqaruvga ta'siri. Korporativ huquq. Korporativ firibgarlik. Korporativ javobgarlik. Xorijiy mamlakatlarda korporativ boshqaruvning huquqiy va institusional asoslari.

Germaniyada korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari. “Aktiengesetz” qonuni. Germaniya korporativ boshqaruv kodeksi. Hindistonda korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari. Kanadada korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari. Janubiy Koreyaning korporativ boshqaruv kodeksi.

2.4. Korporativ boshqaruv modellari

Anglo-amerika korporativ boshqaruv modelining o‘ziga xos xususiyatlari. Anglo-amerika modelining tarkibiy tuzilishi. Anglo-amerika modelining afzalliklari va kamchiliklari. Kontinental Yevropaning ikki bosqichli modeli. Kontinental Yevropa modelining o‘ziga xos-xususiyatlari. Kodeterminatsiya. Kontinental Yevropa modelining tarkibiy tuzilishi. Kontinental Yevropa modelining afzalliklari va kamchiliklari. Osiyoning oilaviy modeli. Osiyo oilaviy modelining o‘ziga xos-xususiyatlari. Osiyoning oilaviy modeli afzalliklari va kamchiliklari. Yaponiya modelining tarkibiy tuzilishi. Taniqli keyretsular. Yaponiya keyretsu modelining afzalliklari va kamchiliklari. Janubiy Koreya modeli. Chebol modelining asosiy xususiyatlari. Janubiy Koreyadagi Chebollarning tarkibiy tuzilishi. Chebol modelining afzalliklari va kamchiliklari.

2.5. Korporativ boshqaruv tamoyillari

Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari. Mas’uliyat (javobgarlik) tamoyili. Shaffoflik tamoyili. Adolatlilik tamoyili. Hisobdorlik tamoyili. Korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari. G20/OECD korporativ boshqaruv tamoyillari. Xalqaro korporativ boshqaruv tarmog‘i (ICGN) ning global korporativ boshqaruv tamoyillari. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global shartnomasi. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) ning korporativ boshqaruv metodologiyasi. Bank nazorati bo‘yicha Bazal qo‘mitasining korporativ boshqaruv tamoyillari. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining korporativ boshqaruv tizimiga oid asosiy tamoyillari. Yevroaksiyadorlarning korporativ boshqaruv tavsiyalari. BMT savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasining korporativ boshqaruv tavsiyalari. Kedberi hisoboti.

2.6. Davlat sektorida korporativ boshqaruv

Davlat ulushi. Davlat korxonasi. Davlat mulkdor sifatida. Xususiy kompaniya. Davlat ulushi mavjud korxonalar va xususiy kompaniya o‘rtasidagi farq. Davlat

ishonchli vakili. ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv). Davlat korxonalarida korporativ boshqaruv. Axborot oshkoraligi va shaffoflik. Nomoliyaviy ko'rsatkichlar. Davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruvning xususiyatlari. IHTT ning davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha tamoyillari.

2.7. Korporativ boshqaruvning boshqaruv organlari va ularning vazifalari

Korporativ boshqaruv organlari. Aksiyador. Oddiy va imtiyozli aksiya. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi. Kvorum. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatlari. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi majburiyatlari. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazishda e'tiborga olinadigan masalalar. Kuzatuv kengashi faoliyati. Strategiyani shakllantirish va siyosatni ishlab chiqish. Kuzatuv kengashi raisi. Kuzatuv kengashi tarkibidagi direktorlar. Ijrochi direktor. Noijrochi direktor. Mustaqil direktor. Kumulyativ ovoz berish. Kengash qo'mitalari. Ijroiya organi. Ijroiya organi raisi. Bosh direktor. Bosh direktor funksiyalari. Ijroiya nazorati. Ijroiya organining hisobdorligi. Korporativ shaffoflik. Ijroiya kompensatsiyasi.

2.8. Korporativ risklarni boshqarish

Riskning mohiyati, asosiy tushunchalari va turlari. Likvidlik riski. Huquqiy risk. Kredit riski. Operatsion risk. Bozor riski. Korporativ risk. Moliyaviy risk. Strategik risk. Reputatsion risk. Ekologik va ijtimoiy risk. Risklarni kamaytirish. Risklarni boshqarish. Korporativ risklarni boshqarish. Korporativ risklari boshqarishda kengash mas'uliyati. Korporativ risk strategiyalari. Risklarni aniqlash. Risklarni baholash. Korporativ risk strategiyalari.

2.9. Listing kompaniyalarida korporativ boshqaruv

Listing kompaniyalari. Listing maqsadlari. Listing mohiyati va uning talablari. Ommaviy korxona. Korporativ tuzilmalarni listing ro'yxatiga olish tartibi. Free Flot. Listing to'lovlari. Delisting. Listing kompaniyalarini boshqarish. Dastlabki ommaviy taklif (IPO). IPO o'tkazish jarayoni bosqichlari. Anderrayter. IPO ning afzalliklari va kamchiliklari. Ikkilamchi ommaviy taklif (SPO). Listing kompaniyalariga egalik qilish. Aksiyadorlar huquqlari. Listing kompaniyalari tomonidan axborotni oshkor qilish. Affillangan shaxslar. Muhim fakt. Listing kompaniyalarida aksiyadorlar faolligini oshirish va investorlar bilan aloqalar.

2.10. Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati

Dividend tushunchasi va uning turlari. Ekstra dividend. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarning huquqiy asoslari. Dividend siyosati. Barqaror dividend siyosati. Doimiy dividend siyosati. Qoldiq dividend siyosati. Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati. Dividend siyosatining samaradorligi. Bir aksiyaga hisoblangan dividend (DPS). Bir aksiyaga to'g'ri kelgan daromad (EPS). Dividend chiqishi koeffisienti (DPR). Dividend rentabelligi (DY). "Narx-daromad" koeffisienti (P/E). Dividend stavkasi (DR). Dividend siyosati nazariyalari. Modigliani-Miller nazariyasi. Qo'lda qushlar nazariyasi. Soliq imtiyozlari nazariyasi.

2.11. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat

Korporativ madaniyat tushunchasi va mohiyati. Korporativ madaniyatning tarkibiy qismlari. Korporativ madaniyat turlari. Korporativ madaniyatning ahamiyatini ko'rsatadigan asosiy jihatlar. Ierarxik madaniyat. Klan madaniyati. Bozor madaniyati. Adhokratik madaniyat. Byurokratik madaniyat. Korporativ madaniyatning xalqaro tamoyillari. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global shartnomasi (UNGC). Xalqaro korporativ boshqaruv tarmog'i (ICGN). Caux davra suhbatlari (CRT).

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. – T.; 1995.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni “Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”, O'RQ-760 son bilan 2022 yil 29 martda tasdiqlangan.
4. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonun. 19.11.1991 yildagi 425-XII-son.
5. “Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi Qonun. 06.12.2001 y.
6. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun. 06.05.2014 y. (yangi tahrirda).
7. “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi Qonun. 03.06.2015 y. (yangi tahrirda).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.
9. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
10. “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida”gi Farmon. 08.04.2022y. PF-101-son.
11. “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmon. 13.04.2021y. PF-6207.
12. “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmon. 27.10.2020y. PF-6096-son.

13. “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 14.01.2019y. PF-5630-son.

14. “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 24.04.2015y. PF-4720

15. “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 16.07.2012y. PF-4453.

16. “Ishbilarmonlik muhitini yana-da tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 18.07.2012y. PF-4455-son.

17. “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 18.11.2008y. PF-4053.

18. “O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 24.01.2003y. PF-3202.

19. “Xo‘jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmon. 22.12.2003y. PF-3366.

20. “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. 08.11.2022y. PQ-415-son.

21. “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror. 18.03.2022y. PQ-168-son.

22. Ёўлдошев Н.Қ. Менежментга кириш. Дарслик.Т.: ТДИУ, 2021 й.

23. Ёўлдошев Н.Қ., Набоков В.И. Менежмент назарияси. Дарслик. Т.ТДИУ, 2013.- 433 б.

24. Ёўлдошев Н.Қ, Юсупова Д.Т. Тизимли менежмент назарияси. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2019 й.

25. О.С.Казаков. Менежментга кириш. Дарслик.Т., 2020й.

26. B.N. Urinov, U.F. Kenjayeva. Korporativ boshqaruv.: Darslik – Т.: ООО “DIADEMA NUR SERVIS”, 2024. 405 б.

27. B.N. Urinov. Corporate governance.: Text book. – T.: OOO “DIADEMA NUR SERVIS”, 2024. 424.
28. Corporate Governance Principles for Banks, Basel Committee on Banking Supervision, 2015.
29. Corporate Governance. Book by Chris A. Mallin 2019.
30. Corporate Governance: Principles, Policies, And Practices. – Book by R. Ian (Robert Ian) Tricker 2019. Testyn Craidd – Core Text.
31. Z.A. Ashurov, F.A. Jalilov, B.N. Urinov Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba). – T.: Iqtisodiyot, 2021. –195
32. Urinov B.N. Korxonalarda personalni boshqarishning korporativ usulidan foydalanish samaradorligi. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2020. - 125 bet.
33. B.N. Urinov, U.F. Kenjayeva Korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar. Monografiya – T.: Innovatsion rivojlanish, 2023 y. – 230
34. Ricky W.Griffin. Fundamental of management. 8 th Edition. 2015.-510 p.
35. Грушенко В.И. Менеджмент. Восприятие сущности Менеджмента в условиях стратегических изменений: Учебное пособие. – М.: ИНФРА – М. 2014. – 288 с.
36. Современный менеджмент: Учебник. //Под ред. проф. М.М.Максимцова, проф. В.Я.Горфинкеля. – М.: Вузовский учебник. ИНФРА – М, 2014. – 299 с.
37. <https://www.natlib.uz/> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi
38. <http://www.c-culture.ru> – Korporativ madaniyat veb-sayti
39. <https://www.davaktiv.uz> – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
40. <http://www.deponet.uz> – Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi
41. <http://www.oecd.org> – Organization of Economic Cooperation and Development
42. <http://www.stat.uz> – Statistika agentligi
43. <https://www.spot.uz>– Spot internet nashriyoti
44. <https://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
45. www.openinfo.uz – Korporativ axborot yagona portali